

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 8 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 8

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 8



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариш давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Қариш давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддиневич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмутаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнура Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоков Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти, Денов
тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

1. Надира Махкамова

СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЎРНАТИЛГАНИДАН КЕЙИН ТУРКИСТОНДА ЖАМИЯТ ИЖТИМОИЙ ТУЗИЛМАСИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ.....5

2. Ollabergan Allaberganov

1945–1960-YILLARDA XORAZM VILOYATI QISHLOQLARIDA MAKTABGACHA TARBIYA TIZIMIDAGI MUAMMO VA ZIDDIYATLAR.....13

3. Zaxra Mirzayeva

K.P. FON KAUFMAN MA’MURIYATINING ILK KO‘RGAZMA TASHABBUSLARI.....17

4. Akmal Mengliboyev

SOVET HOKIMIYATI O‘RNATILISHI ARAFASIDAGI JANUBI-SHARQIY BUXORODA VAZIYAT.....23

5. Xushnudbek Mamadaliev

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA FARG‘ONA VODIYSI SHAHRLARIDAGI DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLAR.....28

6. Xosiyat Nafiddinova

MDH DAVLATLARIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TARIXIY-ETNOGRAFIK ASOSLARI VA ZAMONAVIY TADQIQOT YO‘NALISHLARI.....35

7. Бекзод Пайзуллаев

БУХОРО АМИРЛИГИ ВА ҚЎҚОН ХОНЛИГИНИНГ ЖИЗЗАХ, ЎРАТЕПА ВА ХЎЖАНД УЧУН КУРАШЛАРИ ТАРИХИ БЎЙИЧА МУЛОҲАЗАЛАР.....39

8. Mo‘minjon Salayev

BAQTRIYA HUUJATLARIDA AYOLLARNING HUQUQIY VA IJTIMOIIY MAQOMI (IV – VIII ASRLAR).....46

9. Nafisa Hayotova

БУХОРО ШАҲРИ МЕЪМОРИЙ МУҲИТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР: СИЁСИЙ ҲОКИМИЯТ ВА МЕЪМОРИЙ УСЛУБ ЎРТАСИДАГИ БОҒЛИҚЛИК.....55

10. Sevara Elmurodova


O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR MOHIYATI.....64

11. Ziyodulla Eshmirzayev

TO‘G‘ONSIZ SUG‘ORISHDAN MUHANDISLIK NAZORATIGA: XORAZMVOHASI IRRIGATSIYA TIZIMIDAGI BURILISH (1946–1991-YILLAR).....75

12. Абзамжон Юсупов

ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ЖАДИДЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-МАЪРИФИЙ ВА ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ФАОЛИЯТИ.....81



Xushnudbek Islomjonovich Mamadaliev,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA FARG'ONA VODIYSI SHAHRLARIDAGI DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR

For citation: Khushnudbek I. Mamadaliev. DEMOGRAPHIC CHANGES IN THE CITIES OF THE FERGANA VALLEY IN THE SECOND HALF OF THE 19TH AND EARLY 20TH CENTURIES. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 8.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.22010010>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Farg'ona vodiysi shaharlarida yuz bergan demografik o'zgarishlar tarixiy-statistik manbalar asosida tahlil qilingan. Rossiya imperiyasi tomonidan Qo'qon xonligining tugatilishi va Farg'ona viloyatining tashkil etilishi natijasida vadiyning ma'muriy-hududiy, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik qiyofasida muhim o'zgarishlar yuz bergan. Maqolada Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan, O'sh, Chust va Yangi Marg'ilon shaharlarida aholi sonining o'sishi, aholining joylashuvi, ichki va tashqi migratsiya, rus aholisining ko'chirilishi hamda shahar aholisi etnik tarkibidagi o'zgarishlar yoritilgan. Shuningdek, temir yo'l tarmoqlarining qurilishi, savdo-sanoat munosabatlarining rivojlanishi va yangi ma'muriy markazlarning vujudga kelishi demografik jarayonlarning jadallashuviga ta'sir ko'rsatgan omillar sifatida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, demografiya, aholi, shahar, migratsiya, rus aholisi, ko'chirish siyosati, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan, O'sh, Chust, Yangi Marg'ilon, temir yo'l.

Мамадалиев Хушнудбек Исламжонович,
доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Ташкентский университет экономики и технологий

ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ В ГОРОДАХ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе историко-статистических источников анализируются демографические изменения в городах Ферганской долины во второй половине XIX – начале XX века. После ликвидации Кокандского ханства Российской империей и образования Ферганской области произошли существенные изменения в административно-территориальной, социально-экономической и демографической структуре региона. В статье рассматриваются рост численности населения, особенности его размещения, внутренние и внешние миграционные процессы, переселение русского населения, а также изменения в

этническом составе городов Коканд, Маргелан, Андижан, Наманган, Ош, Чуст и Новый Маргелан. Особое внимание уделено влиянию строительства железных дорог, развития торгово-промышленных отношений и формирования новых административных центров на ускорение демографических процессов.

Ключевые слова: Ферганская долина, демография, население, город, миграция, русское население, переселенческая политика, Коканд, Маргелан, Андижан, Наманган, Ош, Чуст, Новый Маргелан, железная дорога.

Khushnudbek I. Mamadaliev,

Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor
Tashkent University of Economics and Technologies

DEMOGRAPHIC CHANGES IN THE CITIES OF THE FERGANA VALLEY IN THE SECOND HALF OF THE 19TH AND EARLY 20TH CENTURIES

ABSTRACT

This article analyzes demographic changes in the cities of the Fergana Valley in the second half of the 19th and early 20th centuries based on historical and statistical sources. Following the abolition of the Kokand Khanate by the Russian Empire and the establishment of the Fergana Region, significant changes occurred in the administrative, socio-economic and demographic structure of the region. The article examines population growth, settlement patterns, internal and external migration, the resettlement of the Russian population, and changes in the ethnic composition of the cities of Kokand, Margilan, Andijan, Namangan, Osh, Chust and New Margilan. Particular attention is paid to the impact of railway construction, the development of trade and industry, and the formation of new administrative centers on demographic processes in the region.

Index Terms: Fergana Valley, demography, population, city, migration, Russian population, resettlement policy, Kokand, Margilan, Andijan, Namangan, Osh, Chust, New Margilan, railway.

Dolzarbli:

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysida yuz bergan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar mintaqa aholisining demografik tarkibi va joylashuviga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. 1876 yil 19 fevralda Qo‘qon xonligining tugatilishi va uning hududida Farg‘ona viloyatining tashkil etilishi bilan vodiyning Rossiya imperiyasi mustamlaka boshqaruv tizimiga kiritilishi yakunlandi. Farg‘ona viloyati ma‘muriy jihatdan uездlarga bo‘linib, Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon, Namangan, O‘sh va boshqa shaharlar yangi boshqaruv tizimining muhim markazlariga aylandi [1].

Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati natijasida nafaqat siyosiy va ma‘muriy boshqaruv tizimi, balki aholining hududiy joylashuvi ham o‘zgara boshladi. Shaharlarda yangi ma‘muriy va harbiy markazlar tashkil etildi, rus aholisining joylashtirilishi kuchaydi. Temir yo‘l tarmoqlarining qurilishi, savdo va sanoat korxonalarining paydo bo‘lishi esa aholining shaharlarga intilishini kuchaytirdi.

Mazkur davrda Farg‘ona vodiysi shaharlari aholisining soni va tarkibidagi o‘zgarishlar mintaqaning iqtisodiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Ayniqsa, paxtachilikning kengayishi, paxtani qayta ishlash korxonalarining ko‘payishi, savdo markazlarining rivojlanishi va temir yo‘lining ishga tushirilishi yangi mehnat resurslariga ehtiyojni oshirdi [2]. Shu sababli XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysi shaharlaridagi demografik jarayonlarni o‘rganish mintaqaning mustamlakachilik davridagi ijtimoiy-iqtisodiy tarixini yoritishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning metodlari va o‘rganilganlik darajasi:

Maqolani tayyorlashda tarixiylik, qiyosiy-tarixiy tahlil, statistik va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Aholining soni va tarkibini aniqlashda Rossiya imperiyasi tomonidan

o'tkazilgan 1897 yilgi birinchi umumiy aholi ro'yxati materiallari, Farg'ona viloyatiga oid statistik to'plamlar, arxiv hujjatlari va davriy matbuot materiallari muhim manba sifatida xizmat qildi.

Farg'ona vodiysi aholisi va uning etnik tarkibi masalalari S.S. Gubayeva, V.I. Kushilevskiy, V.V. Bartold, Z.M. Akramov va boshqa tadqiqotchilar asarlarida turli jihatlardan o'rganilgan. S.S. Gubayevaning Farg'ona vodiysi aholisi va uning etnik tarkibiga bag'ishlangan tadqiqotlari ushbu masalani tarixiy-demografik jihatdan tadqiq etishda alohida ahamiyatga ega [3].

Bundan tashqari, Farg'ona viloyatining ma'muriy tuzilishi, ko'chirish siyosati va shaharlar aholisi bilan bog'liq ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi hujjatlarida ham uchraydi. Mazkur arxiv materiallari rus aholisining ko'chirilishi, yangi manzilgohlarning tashkil etilishi va mahalliy aholining er-mulk munosabatlariga oid muhim ma'lumotlarni beradi.

Tadqiqot natijalari:

Farg'ona vodiysi shaharlarida aholi sonining o'sishi.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Farg'ona vodiysi shaharlarining demografik taraqqiyotida aholining tabiiy ko'payishi bilan bir qatorda migratsiya jarayonlari ham muhim o'rin tutdi. Ayniqsa, savdo-hunarmandchilik markazlari bo'lgan Qo'qon, Marg'ilon, Namangan va Andijonda aholi sonining o'sishi ancha jadal kechdi.

1897 yilgi Rossiya imperiyasining Birinchi umumiy aholi ro'yxati Farg'ona viloyati aholisi haqida muhim statistik ma'lumotlarni beradi. Mazkur ro'yxat ma'lumotlariga ko'ra, Farg'ona viloyatida jami 1 572 214 kishi yashagan bo'lib, shundan 284 358 nafari shaharlarda istiqomat qilgan [4].

1897 yilda Farg'ona viloyatining yirik shaharlarida aholi soni

Shahar	Aholi soni
Qo'qon	81 354
Namangan	62 017
Andijon	47 627
Eski Marg'ilon	36 490
O'sh	34 157
Chust	13 785
Yangi Marg'ilon	8 928

Manba: Rossiya imperiyasining 1897 yilgi Birinchi umumiy aholi ro'yxati materiallari [4].

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 1897 yilga kelib Qo'qon shahri Farg'ona viloyatidagi eng yirik shahar bo'lib, unda 81 mingdan ortiq aholi yashagan. Keyingi o'rinlarni Namangan, Andijon, Eski Marg'ilon va O'sh shaharlari egallagan.

Qo'qon shahrining aholisi ko'pligi uning uzoq vaqt davomida siyosiy, savdo va hunarmandchilik markazi bo'lib kelgani bilan bog'liq edi. Qo'qon xonligi tugatilganidan keyin shahar siyosiy markaz maqomini yo'qotgan bo'lsa-da, uning savdo-iqtisodiy ahamiyati saqlanib qoldi.

Namangan va Andijon shaharlarining aholisi ham XIX asr oxiriga kelib sezilarli darajada ko'paydi. Bunda ularning qishloq xo'jaligi hududlari bilan yaqin aloqasi, paxtachilikning rivojlanishi va savdo yo'llarining kengayishi muhim rol o'ynadi.

Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Farg'ona vodiysi shaharlarining demografik qiyofasida yuz bergan muhim o'zgarishlardan biri aholining etnik tarkibining murakkablashuvi bo'ldi.

Vodiyning qadimgi shaharlarida mahalliy o'zbek va tojik aholisi asosiy o'rinni egallagan. Shu bilan birga, ayrim shaharlarda qirg'iz, uyg'ur, tatar va boshqa xalqlar vakillari ham yashagan. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik boshqaruvi o'rnatilgach, shaharlarda rus va boshqa evropalik aholi vakillarining soni ortib bordi. Bunda ikki asosiy jarayonni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchisi, Rossiya imperiyasining harbiy-ma'muriy xizmatchilari, harbiylar va davlat

amaldorlarining Farg'ona vodiysiga kelishi bo'lsa, ikkinchisi, markaziy Rossiya hududlaridan dehqon va boshqa aholi guruhlarining ko'chirib keltirilishi edi.

Yangi Marg'ilon shahri ushbu jarayonning eng yorqin namunalaridan biri bo'ldi. Shahar Rossiya imperiyasining Farg'ona viloyatidagi yangi ma'muriy markazi sifatida qurilib, uning aholisi tarkibida rus va boshqa evropaliklar salmog'i yuqori bo'lgan. 1897 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Yangi Marg'ildonda 8 928 kishi yashagan bo'lib, shundan 4 563 nafari ruslar sifatida qayd etilgan [5].

Bu holat Yangi Marg'ilonning boshqa an'anaviy Farg'ona shaharlari kabi tabiiy tarixiy rivojlanish natijasida emas, balki yangi ma'muriy-harbiy markaz sifatida shakllanganligini ko'rsatadi.

Qo'qon XIX asrning ikkinchi yarmida Farg'ona vodiysining eng yirik shaharlaridan biri bo'lib qoldi. 1876 yildan keyin shahar Farg'ona viloyatining dastlabki ma'muriy markazi bo'lgan. Keyinchalik viloyat markazining Yangi Marg'ilonga ko'chirilishi Qo'qonning ma'muriy mavqeini pasaytirgan bo'lsa-da, uning aholisi va iqtisodiy ahamiyatiga katta ta'sir ko'rsatmadi.

1897 yilgi aholi ro'yxatida Qo'qonda 81 354 kishi qayd etilgan [4]. Bu ko'rsatkich shaharning mintaqadagi iqtisodiy va demografik mavqeini yaqqol ko'rsatadi.

Shahar aholisi asosan savdo, hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va boshqa iqtisodiy faoliyat turlari bilan shug'ullangan. Temir yo'lining kelishi esa Qo'qonning savdo-iqtisodiy imkoniyatlarini yanada kengaytirdi.

Qo'qonda eski va yangi shahar qismlarining shakllanishi ham demografik jarayonlar bilan bog'liq edi. Yangi ma'muriy va savdo markazlari atrofida yangi aholi qatlamlari shakllanib, shahar hududi kengayib bordi [6].

Marg'ilon XIX asr oxirida Farg'ona vodiysining eng yirik savdo-hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lib qolgan. Eski Marg'ilon aholisi asosan mahalliy aholidan iborat bo'lib, shahar hayotida ipakchilik, to'qimachilik, savdo va hunarmandchilik muhim o'rin egallagan.

Rossiya imperiyasi ma'muriyati tomonidan Eski Marg'ilon yaqinida yangi ma'muriy markaz – Yangi Marg'ilonning qurilishi shaharning demografik tuzilishida yangi bosqichni boshlab berdi.

Yangi Marg'ilon 1876 yildan Farg'ona viloyatining ma'muriy markaziga aylandi. Bu erga harbiylar, amaldorlar, davlat xizmatchilari va boshqa evropalik aholi vakillari joylashtirildi. Natijada eski va yangi shaharlar yonma-yon mavjud bo'lgan o'ziga xos ikki markazli shahar tizimi shakllandi [7].

Yangi Marg'ilonning ma'muriy markaz sifatida rivojlanishida davlat muassasalari, harbiy garnizon, maktab, pochta, telegraf, tibbiyot va boshqa xizmatlarning tashkil etilishi muhim rol o'ynadi. Biroq temir yo'lining dastlab shaharga bevosita yaqin kelmaganligi Yangi Marg'ilonning savdo-sanoat jihatdan Qo'qon, Andijon va Namangan kabi shaharlar bilan teng rivojlanishiga to'sqinlik qildi.

Andijon XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg'ona vodiysining eng jadal rivojlangan shaharlaridan biriga aylandi. 1897 yilgi aholi ro'yxatida shaharda 47 627 kishi yashaganligi qayd etilgan [4].

Andijonning demografik rivojlanishida temir yo'lining ishga tushirilishi alohida ahamiyatga ega bo'ldi. 1898 yilda Samarqand–Andijon temir yo'lining Andijongacha etkazilishi shaharni Rossiya imperiyasining boshqa iqtisodiy markazlari bilan bog'ladi [8].

Temir yo'l orqali sanoat va qurilish materiallarining kelishi, paxta va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tashilishi shahar iqtisodiyotining rivojlanishini tezlashtirdi. Natijada yangi shahar hududida savdo, sanoat va xizmat ko'rsatish obyektlari ko'paydi. 1898 yilgi Andijon qo'zg'olonidan keyin mahalliy aholining ayrim erlarining davlat tasarrufiga olinishi ham shaharning keyingi hududiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. 1899 yilda Andijon atrofidagi 286 desyatina er yangi shahar ixtiyoriga berilganligi haqidagi ma'lumotlar mavjud [9].

1902 yilgi zilzila esa shaharning demografik va ijtimoiy hayotiga katta zarar etkazdi. Eski shahardagi ko'plab uy-joylar vayron bo'lgan bo'lsa, yangi rus qismida ham talafotlar kuzatilgan.

Zilziladan keyingi qayta tiklash ishlari shaharning qurilish va demografik rivojlanishiga yangi ta'sir ko'rsatdi.

Namangan ham XIX asr oxirida Farg'ona vodiysining yirik shaharlaridan biri edi. 1897 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, shaharda 62 017 kishi yashagan [4]. Namangan shahrining rivojlanishida paxtachilik va savdo asosiy omillardan biri bo'ldi. Temir yo'lining shaharga etib kelishi bilan paxta tozalash zavodlari, savdo va sanoat korxonalari soni ortib bordi.

Shaharning yangi qismida keng va to'g'ri ko'chalar, ma'muriy binolar, savdo obyektlari va turli xizmat ko'rsatish muassasalari qurildi. Bu esa shaharning yangi aholi qatlamlarini o'ziga jalb qilishiga olib keldi. 1912 yilda Qo'qon–Namangan temir yo'lining ishga tushirilishi shahar iqtisodiy va demografik rivojlanishiga yangi turtki berdi [10]. Temir yo'l orqali arzon qurilish materiallarining olib kelinishi ikki qavatli savdo va turar joy binolarining qurilishini tezlashtirdi. Natijada XX asr boshlarida Namangan shahrida ma'muriy, savdo, sanoat va turar joy hududlari bir-biridan nisbatan ajrala boshladi.

O'sh shahri Farg'ona vodiysining sharqiy qismidagi qadimiy shahar bo'lib, 1876 yildan Rossiya imperiyasi tarkibidagi Farg'ona viloyatiga kiritildi. Shahar o'zining geografik joylashuvi va strategik ahamiyati sababli Rossiya ma'muriyati uchun muhim harbiy markazlardan biriga aylandi.

1897 yilgi ma'lumotlarda O'sh shahrida 34 157 kishi istiqomat qilganligi qayd etiladi [4]. XX asr boshlarida shaharning yangi qismida rus harbiylari va ma'muriy xizmatchilari joylashgan bo'lsa-da, eski shaharda mahalliy aholi mutlaq ko'pchilikni tashkil etgan.

1913 yilga kelib O'sh shahrining ruslar yashaydigan qismida 915 kishi yashaganligi, eski qismida esa 44 mingdan ortiq aholi istiqomat qilganligi haqida ma'lumotlar mavjud [11]. Bu raqamlar eski va yangi shahar qismlari o'rtasidagi demografik nisbatning katta farq qilganligini ko'rsatadi.

Chust esa 1877 yilda uezd markaziga aylantirildi. Keyinchalik uezd markazining Namanganga ko'chirilishi Chustning ma'muriy va demografik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shunga qaramay, XX asr boshlarida paxtachilik va temir yo'l tarmoqlarining rivojlanishi shaharning iqtisodiy hayotini jonlantirdi.

Rus aholisining ko'chirilishi va yangi manzilgohlarning paydo bo'lishi

Farg'ona vodiysidagi demografik o'zgarishlarning muhim yo'nalishlaridan biri Rossiya imperiyasining ko'chirish siyosati bo'ldi. Mustamlakachilik boshqaruvi mahalliy hududlarga Rossiyaning markaziy guberniyalaridan rus dehqonlari va boshqa aholi qatlamlarini ko'chirishni qo'llab-quvvatladi.

Farg'ona viloyatidagi dastlabki rus manzilgohlaridan biri O'sh uezdidagi Qurshab hududida tashkil etilgan Pokrovskiy qishlog'i edi. Keyinchalik Namangan uezdida Uspenskoye, Andijon uezdida Nikolayevskoye kabi manzilgohlar paydo bo'ldi [12].

1899 yilda Andijon uezdidagi Mingtepa qishlog'i o'rnida Russkoye qishlog'i tashkil etilib, bu erga Rossiyaning markaziy hududlaridan 200 rus oilasi ko'chirib keltirilgan [13]. Keyingi yillarda Blagoveshchenskoye, Spasskoye va boshqa rus manzilgohlari ham tashkil etildi.

1911 yilga kelib Farg'ona viloyatida rus manzilgohlarining soni 23 taga etgan. Ularning 1 tasi Skobelev, 5 tasi O'sh, 3 tasi Namangan va 14 tasi Andijon uezdlarida joylashgan edi [14].

1913 yilga kelib esa Farg'ona viloyatida 42 ta rus posyolkasi mavjud bo'lib, ularda 2 323 oiladan iborat 12 648 kishi yashagan. Ularning tasarrufida 22 995 desyatina ekin maydoni bo'lgan [15].

Ushbu ma'lumotlar Rossiya imperiyasi davrida Farg'ona vodiysining demografik xaritasida sezilarli o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi. Ko'chirilgan aholiga berilgan imtiyozlar va er ajratilishi mahalliy aholi bilan er munosabatlarida ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo'lgan.

XX asr boshlarida Farg'ona vodiysi shaharlarining demografik holatiga Birinchi jahon urushi ham ta'sir ko'rsatdi. Urush yillarida front hududlaridan ko'plab qochqinlar Turkiston o'lkasiga, jumladan Farg'ona viloyatiga ko'chib kelgan. 1915 yil 21 oktabr holatiga ko'ra, Skobelev shahriga 8 918 nafar qochqin joylashtirilgan. Ularning bir qismi kazarmalar va xususiy uylarga joylashtirilgan [16].

Bundan tashqari, shaharga ko'plab harbiy asirlarning olib kelinishi ham aholi sonining qisqa vaqt ichida keskin ko'payishiga olib keldi. Farg'ona harbiy gubernatori ma'lumotlarida Skobelev shahriga joylashtirilgan harbiy asirlar soni shahar aholisidan bir necha barobar ko'p bo'lganligi qayd etilgan [16].

Bu holat shaharning oziq-ovqat, uy-joy, sanitariya va tibbiy xizmat tizimlariga katta bosim tushishiga sabab bo'ldi. Demak, urush davridagi migratsiya Farg'ona shaharlari demografiyasida qisqa muddatli, ammo sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirdi.

Xulosa.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Farg'ona vodiysi shaharlarida yuz bergan demografik o'zgarishlar Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati, iqtisodiy munosabatlarning o'zgarishi, temir yo'l qurilishi, savdo-sanoatning rivojlanishi va migratsiya jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'ldi.

1897 yilgi Birinchi umumiy aholi ro'yxati Farg'ona viloyatida shahar aholisi sezilarli darajada ko'payganini ko'rsatadi. Qo'qon 81 354, Namangan 62 017, Andijon 47 627, Eski Marg'ilon 36 490 va O'sh 34 157 nafar aholisi bilan viloyatning eng yirik shaharlari qatorida bo'lgan [4].

Demografik jarayonlarning muhim xususiyati shaharlarda aholining hududiy va ijtimoiy tarkibi o'zgarishi bo'ldi. Eski shaharlar asosan mahalliy aholining an'anaviy yashash, savdo va hunarmandchilik markazlari sifatida rivojlangan bo'lsa, yangi shahar qismlari Rossiya imperiyasining ma'muriy, harbiy va iqtisodiy manfaatlari asosida shakllantirildi.

Yangi Marg'ilon, Andijon, Namangan, Qo'qon va O'sh shaharlarida yangi ma'muriy, savdo, sanoat va turar joy hududlarining paydo bo'lishi shaharlarning demografik qiyofasini o'zgartirdi. Ayniqsa, temir yo'lning qurilishi shaharlarda mehnat resurslariga bo'lgan ehtiyojni oshirib, ichki migratsiyani kuchaytirdi.

Rossiya imperiyasining ko'chirish siyosati esa Farg'ona vodiysining etnik-demografik tarkibiga yangi omil sifatida ta'sir ko'rsatdi. 1913 yilga kelib viloyatda 42 ta rus posyolkasining tashkil topishi va ularda 12 648 kishining yashashi bu siyosatning ko'lamini ko'rsatadi [15].

Shunday qilib, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Farg'ona vodiysi shaharlarida yuz bergan demografik o'zgarishlar faqat aholi sonining ko'payishi bilan cheklanmagan. Bu davrda aholining hududiy joylashuvi, etnik tarkibi, ijtimoiy tuzilishi, migratsiya yo'nalishlari va shaharlarning funksional tuzilishida ham chuqur o'zgarishlar yuz berdi. Mazkur jarayonlar Farg'ona vodiysi shaharlarining keyingi XX asrdagi demografik va urbanistik rivojlanishi uchun muhim tarixiy asos bo'lib xizmat qildi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Mamadaliev X.I. Farg'ona vodiysi shaharlari tarixi (XIX–XX asr boshlari): monografiya. – Toshkent: Fan ziyosi, 2022. – 192 b.
2. Лаврентьев В.Л. Капитализм в Туркестане. – Москва, 1930. – 151 с.
3. Губаева С.С. Население Ферганской долины в конце XIX – начале XX века. – Ташкент: Фан, 1983.
4. Первая всеобщая перепись населения Российской империи 1897 г. – Санкт-Петербург, 1897–1905.
5. Ферганская область // Энциклопедический словарь. – Санкт-Петербург: Изд. Ф.А. Брокгауз, И.А. Ефрон, 1897.
6. История Коканда. – Ташкент: Фан, 1984.
7. Нильсен В.А. У истоков современного градостроительства Узбекистана (XIX – начало XX веков). – Ташкент: Фан, 1988.
8. Юсупова М. Полвека трансформации архитектуры Узбекистана: на примере «новых городов» Ферганской долины, конца XIX – начала XX в. – Ташкент, 2005.
9. O'zR MA. I-19-fond, 1-ro'yxat, 7738-ish, 166–169-varaqlar.
10. O'zR MA. I-19-fond, 1-ro'yxat, 26524-ish, 34-varaq.

11. Кушелевский В.И. Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. Том I–II. – Новый Маргелан: Издание Ферганского областного статистического комитета, 1890.
12. Акбаров Р.Г. Хозяйственные взаимоотношения и социально-экономическая жизнь населения Ферганской долины во второй половине XIX – начале XX века. Дисс. канд. ист. наук. – Ташкент: НУУ им. Улугбека, 2003.
13. Ферганская област в 1902 году // Ежегодник Ферганской области. Т. 2. – Новый Маргелан, 1903. – С. 7–8.
14. Масалский В.И. Туркестанский край. – С. 300.
15. Переселенческое дело в Туркестанском крае (области Сыр-Даринская, Самаркандская и Ферганская). Отчёт о служебной поездке в Туркестан осенью 1910 г. – Санкт-Петербург, 1911. – С. 152.
16. Тиллабаев С.Б. XIX аср охири – XX асрнинг бошларида Туркистон ўлкасининг маъмурий-худудий бошқарув тизими ва унда маҳаллий аҳоли вакилларининг иштироки (Фарғона вилояти мисолида). – Тошкент, 2005. – Б. 62.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000